

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA FANLARARO ALOQADORLIK O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Ibrohimova Naima Isroil qizi

Namangan Davlat Pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti

(Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarini integratsiyalashtirish, boshqa fanlar bilan aloqadorlikda olib borgan holda samarali metodlar yaratish, an'anaviy va eskirgan qoliplardan tashqarida qiziqarli dars tashkillash haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: integratsiya, matematika, metod, metodika, usul, aloqadorlik, zamonaviy ta'lim, mantiqiy savodxonlik.

Abstract: This article discusses the integration of elementary school mathematics lessons, the creation of effective methods in connection with other subjects, and the organization of interesting lessons outside of traditional and outdated patterns.

Keywords: integration, mathematics, method, methodology, relevance, modern education, logical literacy.

Ta'lim sohasiga kirib kelgan har bir pedagogning, albatta, ijodkorlik qobiliyati bo'lishi kerak. Chunki darsning qay darajada qiziqarli va sifatli bo'lishi, avvalo, o'qituvchiga bog'liq. Ayniqsa, matematika fanida ijodkorlik o'qituvchi uchun eng kerakli xususiyatlardan biridir. Matematika fanini o'rgatishda ushbu fanning hayotda qanchalik muhim rol o'ynashini tushuntirish, bu fanni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda, integratsiyalashtirilgan holatda yanada qiziqarli qilib olib borish pedagogning muhim vazifasidir.

Matematikani boshqa fanlar bilan integratsiyalash o'quvchilarning bilim darajasini oshirish va ularda yaxlit dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. 2025-yilgi ta'lim metodikalariga ko'ra, ushbu yondashuvning asosiy foydalari quyidagilardan iborat:

- **Mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish:** Integratsiya o'quvchilarda tahliliy ko'nikmalarni shakllantiradi va murakkab masalalarni turli tomondan ko'ra bilishga yordam beradi.

- **Bilimlarni amaliyotga tatbiq etish:** Matematik modellarni fizika, iqtisodiyot yoki informatika kabi sohalarda qo'llash orqali o'quvchilar nazariy bilimlarning real hayotdagi ahamiyatini tushunadilar.

- **Dunyoqarashning yaxlitligi:** Turli fanlar o'rtasidagi aloqadorlik o'quvchiga atrof-muhitni alohida fanlar to'plami emas, balki yagona bir butun tizim sifatida anglash imkonini beradi.

- **O'rganish motivatsiyasini oshirish:** Matematikaning tarix, san'at yoki biologiya bilan bog'lanishi o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi va o'quv jarayonini qiziqarliroq qiladi.

Ushbu yondashuv zamonaviy axborot jamiyatida moslashuvchan va nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan kadrlarni tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Matematika shunchaki raqamlar bilan ishlash emas, balki **barcha fanlarning umumiy tili** hisoblanadi. zamonaviy ta'limda integratsiyalashgan darslar o'quvchining nafaqat bilimini, balki hayotiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga matematika haqida dastlabki tushunchalarni berishda, ayniqsa, uni atrofda narsalar bilan yoki ushbu buyumlar haqidagi fanlar bilan bog'lagan holda tushuntirish yaxshi natija beradi. Masalan, tabiiy fan darsida o'rganiladigan daraxtlar, mevalar, o'simliklar mavzulariga doir bo'lgan matnli masalalar tuzish va tabiiy fanga doir ko'rgazmali metodlardan foydalanish samarali va o'quvchilar ongida fanga qiziqish uyg'otadigan usul hisoblanadi.

Matematika va ona tili fanlarining aloqadorlik jihatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, matematika va ona tili fanlarining integratsiyalashuvi o'quvchining mantiqiy fikrlashi va savodxonligini bir vaqtda rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim yondashuvidir. Matematikada matnli masalalarni ishlashda ona tili darslaridagi matn ustida ishlash mavzusi va unda o'rganiladigan matn mazmunini anglash va mantiqiy xulosalash usullari qo'l keladi.

Matematik tushunchalarni, masalan, ko'paytma, ayirma, tenglama kabi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish, ta'riflarni ona tili qoidalari asosida aniq shakllantirish o'quvchining nutqini o'stiradi.

Boshlang'ich sinflarda matematikani nafaqat ona tili bilan, balki, barcha fanlar bilan integratsiyalash imkoniyati mavjud. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotga yangi qadam qo'ygan va ta'lim sohasiga endigina kirib kelgan o'rganuvchilar deya qaralsasa, matematika esa hayotning barcha jabhalarida kerak bo'ldigan fan hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni juda murakkab jarayondir. Bu jarayonni hozirgi kunda davr talabi asosida tashkil etish, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan katta mas'uliyat, bilim, mahoratni talab etadi. 1-4-sinflardagi matematika darslari umumiy o'rta ta'lim maktab matematika fani uchun asos, poydevor ekan, bu sinflarda matematika o'qitilishini eng zamonaviy

talablar darajasiga ko'tarmoq zamon talabidir. Chunki o'quvchilarga keyinchalik matematika va boshqa fanlar uchun zarur.

Boshlang'ich sinf fanlari va matematika integratsiyasi:

O'quv fani	Integratsiya mavzulari	Amaliy misol va topshiriqlar
Ona tili va O'qish savodxonligi	Son so'z turkumi, matnli masalalar tahlili.	Masala shartini o'qib, undagi miqdoriy munosabatlarni aniqlash; sonlarni so'z bilan to'g'ri yozish.
Tabiiy fanlar (Science)	Vaqt, harorat, masofa va o'lchov birliklari.	O'simlik bo'yini o'lchash va o'sish grafigini chizish; hayvonlarning og'irligini taqqoslash.
Texnologiya	Geometrik shakllar, o'lchash va hisoblash.	Qog'ozdan shakllar yasashda chizg'ichdan foydalanish; material sarfini hisoblash.
Tasviriy san'at	Simmetriya, proporsiya va geometriya.	Simmetriya qoidalarini qo'llash; shakllarning o'zaro nisbatini aniqlash.
Musiq	Ritm va ulushlar.	Notalarning davomiyligini (butun, yarim, chorak) matematik ulushlar orqali hisoblash.
Jismoniy tarbiya	Masofa va vaqtni o'lchash.	Yugurish masofasini o'lchash; soniya o'lchagich (sekundomer) ko'rsatkichlarini taqqoslash.

Boshlang'ich sinflarda nafaqat matematika fanini boshqa fanlar bilan, balki, maktabdagi ta'lim-tarbiyani integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Oxirgi paytlarda ta'limni integratsiyalash masalasiga bir qancha yondashuvlar bo'ldi:

- ✓ Dars jarayonini ikki fan o'qituvchisi olib borishi;
- ✓ Ikki fanni bir darsga birlashtirish;
- ✓ Bir fan mavzusiga oid bo'lgan boshqa fan ma'lumot manbalaridan foydalanish;
- ✓ Integratsiya kurslarini tashkil etish;

- ✓ Ikki yoki undan ortiq bo'lgan fanlarning o'zaro aloqadorlik tomonlarini o'rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Mavlyanova, N.Rahmankulova Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya Toshkent-2013
2. N.Bikbayeva, R.Sidelnikova, G.Adambekova Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent "O'qituvchi" 1996
3. Namangan Davlat universiteti Q.D.Asqarovna Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi Namangan-2020
4. <https://studylib.net/doc/27613254/boshlang%E2%80%99ich-sinf-matematika-darslarini-boshqa-fanlar-bilan-alohadorligi>
5. https://www.google.com/search?q=matematika+va+boshqa+fanlar+aloqadorligi&oeq=matematika+va+boshqa+fanlar+aloqadorligi&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOdIBCTQyMzgZajBqN6gCALACAA&sourceid=chrome&ie=UTF-8